

INQILOB DAVRIDA ROMANTIZM

Umarova Xurshida Zikiryoxonovna¹, Nuriddinova Gulnoza Ro`zaliyevna²

¹ Farg`ona davlat universiteti tayanch doktoranti

² Farg`ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Abstarct

Romantizm insoniyat tarixi kabi qadim tushuncha. Inqilobiy romantizm esa mutlaqo yangi davr va karakter kasb etgan romantizm tushunchasidir. Mazkur maqola orqali inqilobiy romantizm tushunchasi va bu davr adabiy muhiti ko`rib chiqiladi.

Keyword: Bayron, romantizm, inqilob, Shiller, Farg`ona.

INTRODUCTION

Adabiyot va san`atda inson dunyosini gavdalantirish ikki xil yo`l: realizim va romantizm orqali amalga oshirilgan. Romantizm qadimgi dunyo yozuvchilari hisoblangan Sofokl va Evripid asarlarida uchraydi. “Romantizm (fr. romantique, ingl. romantic) – yetakchilik qilgan adabiy yo`nalish. Romantizm mavjud voqealardan ko`nikmaslik tufayli, ma`rifatchilikka xos olam (odam va jamiyat)ni aql bilan raso holga keltirish g`oyasi haqidagi ishonchning barbod bo`lishi natijasi o`laroq yuzaga kelgan bo`lib, «reallikdan qochish»ga, real olamdan ko`ra mukammalroq olam yaratishga intiladi.¹”. Romantizm ijodkor o`y-xayollarining mahsuli. Inqilobiy romantizm esa XVIII – XIX asrda keng adabiy maydonga kirib kelgan yo`nalishdir. Xo`sh Inqilobiy romantizmning yuzaga kelishiga qanday omillar sabab bo`ldi? Ushbu savolga javob berishdan oldin 1792- yildagi fransuz inqilobini yodga olaylik. Xalq och, qonunlar teng bo`lmagan adolatsiz jamiyat! Mazkur sharoitda xalq tenglik uchun ozodlik uchun g`alayon ko`tardi. Mana shu inqilobiy chiqish adabiyotda ham tub burilish yasab berdi. Bu inqilob haqida Xankok shunday deb yozadi: “Fransuz inqilobi o`tgan asrning oxirida qanday qilib sivilizatsiyalashgan dunyoning intellektual va hissiy hayotiga katta turtki bo`lganligi, u qanday qilib barcha erkinlikni sevuvchilarni ilhomlantirgani haqida batafsil aytib o`tishga hojat yo`q²”. Haqiqatda Xankok haq edi: fransuz inqilobigacha adabiyotning, yozuvchilarning bosh roli aristokratlar va ruhoniylar haqida yozish bo`lgan bo`lsa, inqilobdan so`ng asosiy obraz kambag`allar, dehqonlar, oddiy xalq bo`ldi. Viktor Gyugo, Jorj Sand, Bayron, Kolerij va Shelli kabi Yevropa adabiyoti peshqadam vakillari asarlarida xuddi Sharq shoirlari dostonlaridagi singari asl inson, adolatli jamiyat haqidagi orzu - havaslar o`z ifodasini topdi. Faqat ular real hayot voqealariga asoslangandi. Fransuz inqilobi va undan keyingi adabiy jarayon haqida Kristensen quyidagicha fikr bildiradi: “ Romantik Harakat umumiy va doktrinaviy me`yorlarga ko`ra emas, balki o`zlari xohlagancha yozgan bir guruh

¹ D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva “Adabiyotshunoslik lug`ati”

² Hancock, Albert Elmer. *The French Revolution and the English Poets: A Study in Historical Criticism*. New York: Henry Holt and Company, 1899. Pp. 7, 45-79.

zamonaviy shoirlarning qo'zg'olonini anglatadi.³ Bu davrda yaratilgan asarlar haqida so'z borganda albatta Bayron she'rlarini yodga olmaslik imkonsizdir. Uning "Vido" she'ridan parcha keltirsakda so'zimizni davom ettirsak:

O'liklar sharpasi bo'ronlar oshib,

Qulog'imga xuddi nidoday kelar.

Qahramonlar ruhi yurar adashib,

Ona yurt ko'kida shamolday yelar.

Butun ijodiy faoliyati isyonkorlik, zulmga bo'yin egmaslik bilan yo'g'rilgan shoir. Butun shariyatini ingliz reaksiya kuchlariga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy she'rlar bilan bezagan mohir zargar. O'z vatanidan quvilgan, erk uchun kurashgan o'lmas qahramon. Bu misralari orqali ijodkor hech qachon qahramonlar tugamasligi, biri ketsa o'niga yana va yana yangi kurashchilar, erk uchun kurashchilar, kelishini ta'kidlab o'tadi. Umrining so'ngiga qadar sobit kurashchi shoir bo'lgan Bayronning asarlari hali ham o'z mohiyatini yo'qotmay kelmoqda.

Shuningdek, bu davr adabiy muhiti Shiller kabi takrorlanmas ijodkor uchun samarali yillar bo'ldi. U o'zida bor imkoniyat bilan zulm zanjirlarini uzib tashlashga qodir asarlar yaratdi. Garchi Bayron kabi yurtdan quvg'in qilingan bo'lsada ijodiy faoliyatini bir zumga to'xtatmadi. O'zidan o'chmas iz, beqiyos asarlar qoldirdi. u o'zining she'riy obrazlarining jadal sur'ati, janr va she'r rasmlarini mahorati hamda ijodidagi idealistik va materialistik g'oyalarning murakkab o'zaro ta'siri tufayli ko'proq tanqidiy e'tiroflarga sazovor bo'ldi. Uning boshqa yirik asarlari orasida "Sensi" she'riy dramasi va "Alastor" yoki "Yolg'izlik ruhi", Julian va Maddalo "Adonais" "Bog'lanmagan Prometey" kabi uzun she'rlari yuqoridagi fikrlarimizning yorqin dalilidir. Karl Marks, Mahatma Gandi, Bernard Shou kabi taniqli shaxslarning aynan Shiller asarlaridan ilhomlangani, unga muxlislik qilganiga tarix guvohlik berib turibdi. Amerikalik adabiyotshunos Garold Bloom uni "ajoyib hunarmand, raqibi bo'lmagan lirik shoir va shubhasiz, she'r yozish uchun eng ilg'or skeptik aqllardan biri"⁴ deb ta'riflaydi.

Inqilobiy romantizm va romantistlar ozodlik va haqiqatning jarchilari, bu yo'lda hech nimadan qo'rqmasdan adolatni kuylagan asl ijodkorlarning asl yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Ulug'ov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent-2005. 262-267 b.
2. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva "Adabiyotshunoslik lug'ati"

³ Christensen, Jerome. *Romanticism at the End of History*. Baltimore: The Johns Hopkins University Press, 2000. Pp. 9-20, 72-74.

⁴ Bloom, Garold (2004). Chaucer dan Frostgacha bo'lgan ingliz tilidagi eng yaxshi she'rlar. Nyu-York: Xarper Kollinz. p. 410.

